

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**5111900- "Defektologiya" ta'lim
yo'nalishi II "A" guruh talabasi
Abdumalikova Nazokatning**

"Bosh miyaning anatomik tuzilishi"

mavzusidagi

KURS ISHI


Ilmiy rahbar: M.Hamidov

Reja:

1. Bosh miya xaqida tushuncha.
2. Bosh miya egat va pushtalari ularning vazifalari.
3. Markaziy, Sil'viy va Roland egatlari xaqida tushuncha.
4. Bosh miya qorinchalari, joylashuvi va ularning vazifalari.
5. Bosh miyaning kul rang va oq moddalari xaqida tushuncha.


Bosh miya kalla qutisi ichida joylashgan bo'lib, uning ogirligi 1275- 1375 gramm, chaqaloklarda esa 330- 340 gramm bo'ladi. Bosh miya ikkita: o'ng va chap yarim sharlardan iborat. Bu yarim sharlarni ustki vertikal chuqur egat ikkiga ajratib turadi. Egatning ostki tomonida oq moddadan paydo bo'lgan qadoqsimon tana yotadi. Bosh miya yarim sharlarining ustki tuzilishi juda murakkab bo'lib, yuza va chuqur egatlar bilan ajragan ko'plab pushtalar bor. Ikki egat orasida joylashgan qism pushta deb aytiladi.

1- Rasm.



Bosh miya yarim sharlari peshona, tepa, chakka va ensa bo'laklarga bo'linadi. Bu bo'laklarni chuqur egatlar ajratib turadi. CHakkani peshona va tepa bo'laklardan ajratib turuvchi egat Silbiy egati deyiladi Peshona bo'lagini tepa bo'lagidan ajratib turuvchi egat markaziy Roland egati deb aytiladi. CHakka bo'lagining tashqi yuzasida ikkita gorizontal egat va uchta yuqori, o'rta va pastki pushtalardan iborat. Katta miya peshona bo'lagida quyidagi egat va pushtalar bor. Markaziy egatga parallel holda oldingi markaziy egat joylashgan. Bu egat ustki va pastki qismlarga bo'linadi. Bundan tashqari, gorizontal xolda joylashgan ikki egat: ustki va pastki egatlar bor. Ular peshona bo'lagini yuqori, urta va pastki pushtalarga ajratib turadi.

Bosh miya qorinchalari to'rtta bo'lib, ularning ikkitasi o'ng va chap yarim sharlarda, uchunchi va to'rtinchi qorinchalar esa miyaning o'zak qismida joylashgan. Bu qorinchalar bir-biri bilan teshikchalar orqali birikkan bo'lib, ularda miya suyuqligi xarakatlanadi. Miya suyuqligi miyani turli silkinish va shikastlanishlardan himoyalaydi, miya hujayrasida modda almashinuvida ishtirok etadi. Moddalar almashinuvidan chiqqan chiqindilarni miya suyuqligi miya qon tomirlariga o'tkazadi, ular umumiy vena tizimiga tushib, kayta tozalanadi. Miya suyuqligi doimo yangilanib turadi va miya bosimini doimo bir me'yorda tutib turadi. Bunday vazifani arteriya qon tomiri bilan miya suyuqligi orasidagi tomirlar bajaradi. Bu tomirlar gematoentsefalik to'siq hisoblanadi. Ya'ni miya uchun zararli bo'lgan moddalar ushlab qolinadi.



Katta miya yarim sharlari kesib ko'rilganda miya to'qimasi kul rang va oq moddadan iborat ekanligini ko'ramiz. **Miyaning kul rang moddasi** miyaning eng ustki qavati bo'lib uning qalinligi o'rtacha 5 mm ga teng. Bu kul rang qavat bosh miya po'stlog'i deb ataladi. Bu yerda asosan nerv xujayralari va

nerv tolalari joylashgan bo'lib, ular bir-biridan farq qiluvchi 6 qavatli xujayralardan iborat.

1. Molekulyar qavat. Bu yerda hujayralar siyrak joylashgan bo'lib, tolalari miyaning tashqi yuzasiga paralel holda tarmoqlanadi.
2. Tashqi donador qavat. Bu qavat zich joylashgan mayda donador nerv xujayralaridan iborat.
3. Piramida qavat. Turli kattalikdagi piramida xujayralaridan iborat.
4. Ichki donador qavat. Bu qavat mayda, yumaloq va uchburchak xujayralardan hosil bo'lgan, po'stloqning ba'zi joylarida juda yupqa joylashgan bo'ladi.
5. Tugunchali qavat yoki yirik piramida xujayralar qavati. (Bets xujayralari).
6. Dum simon xujayralar kavati.

Bu qavatlar hamma joyda ham bir xil qalinlikda bo'lavermaydi.

Po'stloq ostida joylashgan oq moddaning ichida kul rang moddaning yig'indisidan iborat alohida tugunlarni ko'rish mumkin. Ularga dumsimon yasmiqsimon yadrolar va targ'il tana kiradi. Ular nerv tolalari bilan o'zaro bog'langan.

Yasmiqsimon yadroning tashqarisida kul rang moddadan tashkil topgan, devori yupqa plastinkaga o'xshash kuruv do'ngligi joylashgan. CHakka bo'lagining old tomonida esa bodomsimon tana yotadi. Yasmiqsimon yadro bilan dumsimon va ko'ruv do'ngligi o'rtasida joylashgan oq moddadan tuzilgan ingichka yo'l ichki kapsula deb aytiladi. Ichki kapsuladan bosh va orka miyani bog'lovchi xarakatlantiruvchi sezuvchi yo'llar o'tadi.

Bosh miyaning oq moddasi xar tomonga yo'naluvchi ko'p sonli nerv tolalaridan iborat. Bu tolalar bajaradigan vazifalariga ko'ra 3 turga bo'linadi.

1. Assotsiatsion tolalar - Yarim shardagi har xil bo'limlarni bir -biri bilan bog'laydi.

2. Kommissural tolalar - CHap yarim shar bilan o'ng yarim sharni bog'lovchi tolalar.

3. Proektsion tolalar – Miya yarim sharining po'stloq qismini pastida joylashgan miya ustuni va orqa miya bilan bog'laydi.

Bosh miya katta yarim sharlari o'rtasidan ikkiga bo'linganda miyaning quyidagi qismlarini ko'rish mumkin: O'rta va oraliq qismida oraliq miyani, o'rta miyani, ko'prik va uzunchoq miyani.